UO‘K 004.02

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHGA DOIR

(“Google Forms” misolida)

M.Sh. Rahmonov

Maqolada ta’lim jarayonida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish masalasi Google Forms misolida o‘rganilgan. Google Formsda anketa so‘rovnomalar o‘tkazish, testlarni yaratish, test turlarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Ta’lim jarayonida bilimlarni shaffof baholash uchun Google Forms qulay platforma bo‘lib, mazkur platformada baholash natijalarini diagramma shaklida olish va tahlil qilish, test yoki so‘rovnomalarni tez baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, Google Forms, onlayn test, shaffof nazorat, so‘rovnoma.*

В статье исследуются вопросы использования цифровых средств обучения в образовательном процессе на примере Google Forms. Рассматриваются конкретные аспекты проведения опросов, создания тестов и применения типов тестов в Google Forms. Google Forms – удобная платформа для прозрачной оценки знаний в образовательном процессе, представляющая возможность получения и анализа результатов оценки в виде диаграмм, а также быстрой оценки тестов или анкет на данной платформе.

Ключевые слова: *цифровое образование, Google Forms, онлайн-тестирование, прозрачный мониторинг, анкетирование.*

Hozirgi davrda ta’lim jarayonida fanlarni o‘rganishdagi an’anaviy yondashuvlar o‘zgarib, raqamli ta’lim vositalari yordamida bilim olish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. Bunday o‘zgarishlar, albatta, ta’lim jarayonining tezroq takomillashuviga olib keladi. Raqamli ta’lim texnologiyalari interaktiv va multimediali topshiriqlarni yaratish imkoniyatini berib, o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Raqamli ta’lim talabalarning raqamli resurslar bilan ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi, balki ijtimoiy sohada ham odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy o‘sishga zamin yaratadi: mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, yana bir muhim afzalligi – korrupsiyaga chek qo‘yadi [1. B. 868].

Shuningdek, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash nafaqat uslubiy bazani boyitishga, balki talabalarning ijodiy va intellektual rivojlanishi uchun ham yangi imkoniyatlar ochib beradi [2. B. 28].

“Google Forms” – onlayn so‘rovnomalar va testlar yaratish vositasi. “Google Forms” Gugl tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, onlayn tarzda so‘rovnomalar, testlar va formalar yaratish uchun foydalaniladi. U, birinchidan, cheklovlarsiz imkoniyatga ega. “Google Forms” barcha asosiy imkoniyatlar (so‘rovnomalar, testlar, fikr-mulohazalarni yig‘ish)ni hech qanday cheklovlarsiz taqdim etadi. Ikkinchidan, Gugl akkaunti bilan integratsiyalangan – xizmatdan foydalanish uchun Gugl akkauntiga ega bo‘lish talab etiladi.

Shuningdek, “Google Forms”da quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- loyiha dizayni va shablonlar katalogi;
- turli mavzularda shakllar yaratish;
- oddiy va foydalanishga qulay interfeys;
- shaxsiy kompyuter, planshet va smartfon kabi turli qurilmalardan kirish imkoniyati.

“Google Forms” o‘quv jarayonida foydalanish uchun ham keng imkoniyatlar beradi. Ushbu vositani o‘quv maqsadlarida quyidagilar uchun foydalanish mumkin:

1) so‘rovnomalar va so‘rovlar o‘tkazish;
2) ovoz berish jarayonlarini tashkil etish;
3) uy vazifasini masofadan turib tekshirish;
4) tadbirlarga ro‘yxatdan o‘tish;
5) ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;
6) darsdan keyin fikr-mulohazalarni yig‘ish;
7) testlar tayyorlash va o‘tkazish.

“Google Forms” – bu o‘quv jarayonida sodda va samarali foydalanish mumkin bo‘lgan vosita. Uning yordamida testlar, so‘rovnomalar va fikr-mulohazalarni osonlik bilan tashkil etish mumkin. Bu vosita-


ning asosiy afzalliklari – qulaylik, keng imkoniyatlar va turli platformalarda ishlash qobiliyatidir [3. B. 68].

Test yaratish uchun Google akkauntiga kirib, shakllar muharririni ochish lozim. Keyingi qadam shablonni tanlash yoki shaklni yaratish, uni kerakli mazmun bilan to‘ldirishdan iborat (qisqa qo‘llanma, umumiy ma’lumotlar, savollar va javoblar). Sozlamalarga qarab, savollar turli xil bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, izohlar sozlash va har bir javob uchun sharh joylashtirish mumkin.

“Google Forms” – bu ovoz berish, test, anketa va ma’lumotlarni yig‘ish shaklini yaratishga imkon beruvchi onlayn so‘rovni boshqarish vositasi. U “Google Drive” dasturiy ta’minot to‘plamiga kiritilgan (“Google Sheets”, “Google Docs” va “Google Slides”) [5].


Gugl qidiruv maydoniga “gugl disk” jumlasini kiritamiz. Birinchi topilgan resurs nomi “Google Disk: vxod v sistemu” (https://drive.google.com/drive/my-drive?hl=ru) ekanligiga ishonch hosil qilgach, ushbu havola orqali o‘tamiz. Albatta, bu yerda brauzerga kirish o‘z akkauntingiz orqali bo‘lishi shart. Aks holda “Google Disk” kirishning bir nechta usulini taklif etadi. Shu vaqtda agar siz personal kompyuterda ishlayotgan bo‘lsangiz, brauzer orqali kirish variantini tanlashni taklif etamiz. Saytga kirgandan so‘ng “*Для личных целей*”, “*Для бизнеса*” variantlari taklif etiladi. Biz “*Для личных целей*” variantni tanlashni taklif etgan bo‘lar edik.

Variantlardan biri tanlangandan so‘ng “bulutli saqlash” xizmatiga kiramiz.



1-rasm. Gugl “bulutli saqlash” xizmati.

Yangi shakl hosil qilish uchun *Google Формы*”-“*Создать пустую форму*” bo‘limlariga kiramiz (1-rasm). Bir ozdan so‘ng yangi shakl oynasi ochiladi.




2-rasm. Yangi shakl oynasi.

Yangi shaklga izoh yozish uchun "*Новая форма*" bo'limiga kiramiz va kerakli jumlani kiritamiz. Misol uchun, "Raqamli ta'lim texnologiyalari mavzusida so'rovnoma". "*Вопрос без заголовка*" qatoriga o'tiladi va so'rovnomani to'ldiruvchi talabaning familiyasi, ismi uchun "FIO" yozuvi kiritiladi. "*Описание*" qismiga esa izoh yoziladi, masalan: "O'z familiya va ismingizni kiriting" kabi.

Anketa savollarini kiritish va yangi savol qo'shish uchun oynaning o'ng tomonida joylashgan + ("*Добавить вопрос*") tugmasi bosiladi. Natijada yangi savol maydoni ochiladi (2-rasm).

Yangi savolda talabaning jinsi aniqlanadi. Buning uchun "*jinsingiz*" yozuvi kiritiladi va yashirin ro'yxatda faqat bir variant ta'minlanishi uchun "*Один из списка*" varianti tanladi (3-rasm).




3-rasm. Savol maydoni – savol tipini tanlash.

Yangi savol qo'shish uchun yuqoridagi kabi + ("*Добавить вопрос*") buyrug'i bajariladi va yangi savol matni kiritiladi, masalan: "Quyidagi raqamli platformalarning qaysilaridan ko'proq foydalanasiz? "


Javoblardan bir nechtasini tanlash mumkin bo'lishi uchun yashirin ro'yxat ochiladi va "Несколько из списка" variant tanlanadi.

Yangi savol qo'shiladi va javoblar shkala ko'rinishida ifodalanishi uchun yashirin ro'yxatdan "Shkala" variant tanlanadi (4-rasm).



4-rasm. Javoblarni shkala ko'rinishida ifodalash.


Yangi savol qo‘shiladi va javoblar klaviatura orqali kiritilishini ta’minlash uchun yashirin ro‘yxatdan “Tekst (abzas)” variant tanlanadi (5-rasm).



5-rasm. Javoblarni klaviaturadan kiritish.


Agar bir savoldan nusxa olish zarurati bo‘lsa, oynaning ost qismida joylashgan “*Создать копия вопроса*”, savolni o‘chirish zarurati tug‘ilsa “*Удалить вопрос*” buyrug‘i bajariladi. Savolga javob berish majburiy bo‘lishini ta’minlash uchun esa “*Обязательный вопрос*” buyrug‘i faollashtiriladi.

So‘rovnoma savollari to‘la kiritib bo‘lingandan so‘ng “*Ответы*” bo‘limiga o‘tiladi. Talabalar tomonidan berilgan javoblar jadvalga kelishini ta’minlash uchun “*Установить связь с таблицами*” buyrug‘ini bajaramiz. So‘ngra kerakli izohlarni kiritib, “*Создать*” tugmasi bosiladi.




6-rasm. Javoblar jadvalini hosil qilish.

Создать” tugmasi bosilgandan so‘ng jadval avtomatik ravishda ochiladi va so‘rovnomadagi savollar alohida ustunda ifodalanadi. Jadvalda har bir talaba tomonidan savolga berilgan javob aks etib boradi. So‘rovnoma yakunlangandan so‘ng har bir savolga javobni tahlil qilish mumkin. Buning uchun “*Ответы*” bo‘limiga o‘tiladi va javoblarni diagramma shaklida yoki tekst (abzas) ko‘rinishida ko‘chirib olish mumkin bo‘ladi (7-rasm).



7-rasm. Javoblarning diagramma shaklida ifodalanishi.

So'rovnoma shaklini tarqatish uchun oynaning yuqori o'ng burchagida joylashgan "*Опубликовать*" tugmasi bosiladi. Keyingi oynada kerakli ishlar bajarilgandan so'ng "*Опубликовать*" so'zi o'rniga "*Опубликовано*" so'zi paydo bo'ladi (8-rasm).




8-rasm. So'rovnoma shaklini tarqatish.

So'rovnoma shaklining havola nusxasini olish uchun *Копировать ссылку для запольнение формы*" buyrug'i bajariladi va "*Короткий ссылка*" tanlanib, nusxa olinadi, bu havola talabalarga internet, telegramm orqali yetkaziladi.

"Google Forms"da mashq/vazifa variantlarining juda katta tanlovi taklif etiladi: ro'yxatdan tanlov (birdan bir nechta variantgacha), o'lchov va matn (so'zlar sonida qisqa yoki cheksiz). Har bir savol/topshiriq uchun tavsif, yakunlash misollari va boshqalarni yaratish mumkin. Savollar/topshiriqlar majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin (test muallifi tomonidan belgilanadi) [6. V. 135].


Test yaratish. Test yaratish uchun "Google Disk" xizmatiga kiriladi va "*Test*" bo'limi faollashtiriladi. "*Создать*" – "*Google Формы*" – "*Пустой тест*" buyrug'i bajariladi (9-rasm)



9-rasm. Yangi test yaratish.


Test oynasi ham so‘rovnoma shakli kabi bo‘lib, faqat “*Настройка*” bo‘limidagi “*Test*” buyrug‘i faollashgan bo‘ladi (10-rasm). So‘rovnoma shaklida esa bu buyruq passiv bo‘ladi.

Test savollarini kiritish so‘rovnoma shaklidagi kabi bo‘ladi.



10-rasm. “*Test*” bo‘limini faollashtirish.

Faqat oynaning o‘ng tomonida panel joylashgan bo‘lib, u testga turli materiallar qo‘shishga xizmat qiladi.



11-rasm. Test elementlarini qo‘shish paneli.

Quyida ularning vazifalarini bayon etamiz.

“+” – yangi savol kiritish;

“Tt” – sarlavha kiritish (test bo‘limi sarlavhasi kiritiladi);

“*картинка*” – testga rasm kiritish;

“*видео*” – testga video kiritish;

“*Добавить раздель*” – testga yangi bo‘lim qo‘shish, testdagi har bir bo‘lim yangi sahifadan ochiladi. Nazorat ishlarida har bir test yangi oynada ifodalanadi, ya’ni bir test bir sahifada aks etadi, bu ham talabaga qulaylik yaratadi.

Test savoli va javoblar kiritilgach, to‘g‘ri javobni belgilab qo‘yish zarur, buning uchun “*Ответы*” buyrug‘i (11-rasm) bajariladi. To‘g‘ri javob uchun necha ball berilishi “*Ball*” bo‘limida ko‘rsatiladi. Shundan so‘ng “*Готово*” tugmasi bosiladi.

Test savollari kiritib bo‘lingach, testni sozlash kerak bo‘ladi. Buning uchun “*Настройки*” bo‘limiga o‘tiladi va quyidagi ishlar sozlanadi.

“*Сразу после отправки формы*” buyrug‘i faollashtirilsa, test natijalari hech qanday so‘rovlarsiz test topshiruvchiga yetib boradi va natijalar jadvalda aks etadi.

“*После ручной проверки*” buyrug‘i faollashtirilsa, har bir test topshiruvchining elektron pochtasini kiritish talab etiladi. Bu esa talabaga noqulaylik tug‘diradi (ayrimlarda elektron pochta bo‘lmasligi mumkin). Shuning uchun bu buyruqni faollashtirmaslik tavsiya etiladi.

“*Незачтенные ответы*” buyrug‘i faollashtirilsa, test topshiruvchi (respondent) savollarga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob berayotgani ifodalanib boradi. Bu ham talabaga savollarga javob berishda qulaylik yaratadi.

"*Правильные ответы*" buyrug'i faollashtirilsa, testga javob berib, ball olib bo'lgandan so'ng test topshiruvchi to'g'ri javoblarni ko'rish imkoni beriladi. Bu esa talabaning xatolardan xulosa chiqarishiga, keyingi safar test topshirganda yaxshi ball olishiga zamin bo'ladi.

"*Баллы за ответы*" buyrug'i faollashtirilsa, test oxirida talaba test natijasini – to'plagan ballarini ko'ra oladi. Bu esa talabaga o'z bilimi darajasini bilib olish imkonini beradi.

"*Максимальный балл за вопрос по умолчанию*" bo'limida har bir yangi test savoli uchun turg'un holatda necha ball berilishi belgilab qo'yiladi. Misol uchun, har bir test uchun 1 ball.

Test uchun javob variantlari.

"*Текст (строка)*" – javob bir satrdan iborat bo'ladi va to'g'ri javob test tuzuvchi tomonidan kiritib qo'yiladi, test topshiruvchi aynan shu javobni kiritsa, ballga ega bo'ladi, aks holda ballga ega bo'lmaydi.

"*Текст (абзац)*" – javob bir abzas (bir necha satr) dan iborat bo'ladi va test tuzuvchi tomonidan bir abzas hajmida javob kiritiladi.

"*Один из списка*" – javoblardan bittasi to'g'ri bo'ladi, test tuzuvchi to'g'ri javobni belgilab qo'yadi.

"*Несколько из списка*" – javoblardan bir nechtasi to'g'ri bo'ladi, test tuzuvchi to'g'ri javob variantlarini belgilab qo'yadi.

"*Раскрывающийся список*" – javoblar tushuvchi ro'yxatda aks etadi, test tuzuvchi to'g'ri javobni test tuzish vaqtida belgilab qo'yadi.

"*Загрузка файлов*" – test savoliga javob fayl holatda taqdim etiladi. Misol uchun, "Informatika o'qitish metodikasi" fanida raqamli ta'lim texnologiyalari nomlarini daftarga yozish va so'ngra uni rasmga olib, rasm-faylni yuborish kerak bo'ladi.

"*Шкала*" – bu test turi nazorat ishi uchun noqulay, shuning uchun bu test turi kam qo'llanadi.

"*Оценка*" – test savol-javoblarida javoblarga baho qo'yish talab etiladi. Aksincha, bu test turi anketa so'rovlarda ko'p ishlatiladi.

"*Сетка*" – test savollaridagi javoblar bir nechta bo'lib, ular setka (jadval) ko'rinishida bo'ladi.

Javoblar statistikasini diagramma shaklida, to'g'ridan-to'g'ri shaklda va respondentlarning javoblari asosida avtomatik ravishda yaratilgan Google elektron jadvalidan topish mumkin. "Google Forms"dan foydalanib, test yaratish, uni ishtirokchilarga yuborish va javoblarni baholash mumkin. Test natijalari to'g'ri javoblar soniga qarab avtomatik ravishda hisoblanadi [7. B. 136].

Test natijalari "Excel" elektron jadvaliga kiritiladi, bu javoblarni qo'lda tekshirish zaruratini deyarli yo'q qiladi va test ishi natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni osongina olish imkonini beradi. "Google Forms" xizmati javoblar bo'yicha asosiy statistikani aniq va qulay shaklda taqdim etadi (eng past, o'rtacha va eng yuqori ballni aniqlash, olingan ballar bo'yicha natijalarni taqsimlash, talabalar orasida eng katta qiyinchiliklarga sabab bo'lgan savollarni ko'rsatish va boshqalar). Bularning barchasi o'qituvchiga talabalarning ma'lum ko'nikmalari va bilimlarini tezkor baholash imkonini beradi [8. B. 22].

Jadval shaklidagi javoblarni "Excel" formatda ko'chirib olish mumkin. Javoblar asosida talabalar qaysi savollarga javob bera olgani, qaysi savollarga javob bera olmaganini tahlil qilish orqali keyingi dars mashg'ulotlarini rejalashtirish mumkin (14-rasm). Bu esa talabalar uchun murakkab bo'lgan aynan qaysi mavzular ustida o'qituvchi ko'proq ishlashi kerakligini, qanday raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, dars mashg'ulotini ko'rgazmali va interaktiv tarzda o'tish zarur ekanligini belgilab beradi.

"Google Forms"ning yutuqlari.

"Google Forms" mobil qurilmalar uchun moslashtirilgan. To'liq funksionallikka ega mobil telefon yoki plansheт yordamida shakllarni yaratish, ko'rish, tahrirlash va yo'naltirish mumkin [9].

Talabalarga test turli shakllarda: javob variantlaridan birini tanlash yoki ketma-ket to'ldirish orqali taqdim etilishi mumkin. O'qituvchi tugallangan testni qo'lda baholashi yoki avtomatik baholash tizimini ishga tushirishi mumkin. Shuningdek, talabalar o'z natijalarini ko'rishlari, to'plagan ballarini bilishlari va xatolarini tahlil qilishlari mumkin. Bir dars doirasida butun guruh bilan ishlash imkoniyati tufayli qog'oz va bo'yoq sarflanmaydi, shuningdek, baholash uchun vaqt tejaladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun hatto kompyuterlar ham talab etilmaydi. Test jarayonini murakkabroq qilish maqsadida har bir variant uchun turli savol raqamlarini belgilash mumkin. Shu tarzda talabalarning natijalarni nusxalashi qiyinroq bo'ladi. Guruh bo'yicha darhol umumiy tahlil o'tkazish yoki har bir talaba natijasini alohida ko'rib chiqish imkoniyati mavjud. O'qituvchi talabaning javoblariga shaxsiy izohlarini qo'shishi ham mumkin.

Statistika va javoblarni to'g'ridan-to'g'ri Google shakllarining o'zida yoki turg'un holat bo'yicha avtomatik ravishda yaratilgan alohida jadvalda ko'rish mumkin. Ilgari yaratilganini ham belgilash mumkin [10].

"Google Forms"ning kamchiliklari.

1. Barcha talabalarda telefon bo'lmasligi mumkin. Ba'zi talabalar internetga kirish imkoniyatiga ega emaslar. Bunday hollarda, dars qismining qog'oz versiyasini oldindan tayyorlash yoki ularga muqobil topshiriqlar berish kerak bo'ladi.

2. Ota-onalarning salbiy munosabati. Barcha ota-onalar onlayn testlardan foydalanishni qo'llab-

quvvatlamasligi mumkin. Ular an'anaviy usullardan foydalanishni afzal ko'rishadi yoki bolalarining internetdan foydalanishiga cheklov qo'yishlari mumkin.

3. Talabalarning fikrlash jarayoni va yechim topish usullari ko'rinmasligi. "Google Forms" asosan tayyor javoblarni tekshirishga yo'naltirilgani sababli, talabalarning fikrlash jarayoni, muammoni qanday hal qilgani yoki qanday xatolarga yo'l qo'yganini to'liq baholash qiyin. Shuning uchun ushbu shakldan foydalanishda me'yorni saqlash va uni qo'llash haddan tashqari ko'payib ketmasligi lozim.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, xulosa sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

"Google Forms" – onlayn so'rovnomalar va testlar yaratish vositasidir;

"Google Forms" Google tomonidan taqdim etilgan, onlayn tarzda so'rovnomalar, testlar va formalar yaratish uchun foydalaniladigan vosita ekanligi ayon bo'ladi;

"Google Forms" so'rovnomalar, testlar, fikr-mulohazalarni yig'ish bilan birga ularni hech qanday cheklovlarsiz taqdim etadi;

xizmatdan foydalanish uchun Google akkauntiga ega bo'lish talab etiladi;

talabalar bilimini shaffof va onlayn tekshirish, natijalarni tez olish imkonini beradi (12-rasm);

"Google Forms" yordamida yaratilgan test va so'rovnomalarni diagrammali tahlil qilish (13-rasm), keyingi o'quv ishlarini tashkil etishda ulardan foydalanish;

	A	B	C	D	
	Form_Responses1				
1	Отметка времени	Баллы	Талабанинг фамилияси, исми ва гуруҳи	Қайси жавобларда изохлар тўғри келтири	Қайси каторда
2	06.02.2025 15:28:29	21 / 25	Abdumannobova Nurjaxon MI-302-guruh	float-хақиқий типли объект, int-бутун тип объе	x2
3	06.02.2025 15:34:01	21 / 25	Nurmuhammedova Soxibaxon 302	str-сатр тип объект, float-хақиқий типли объек	x2
4	06.02.2025 15:34:34	21 / 25	Tursunova Malika MI 302 guruh	float-хақиқий типли объект, int-бутун тип объе	x2
5	06.02.2025 15:35:44	18 / 25	Inoyatova Gulshoda	int-бутун тип объект, float-хақиқий типли объе	x2

12-rasm. Interaktiv onlayn testning javoblar jadvali.



13-rasm. Interaktiv onlayn testning javoblar diagrammasi.

So'rovnoma va interaktiv test havolasini talabalarga telegramm, instagram, WhatsApp, feysbuk, tvitter va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali yetkazish mumkin.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan, xususan, "Google Forms" imkoniyatlaridan foydalanish nafaqat materialni chuqur o'zlashtirishga, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil ma'lumot izlash va raqamli muhitda samarali o'zaro munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. O'qituvchi ijrochi va yo'lboshchi rolini o'ynab, talabalarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. *Абдураҳмонов А.А., Дадабаева Н.А.* Замонавий рақамли технологияларнинг қўлланилиш соҳалари ва ютуқлари // Academic research in educational sciences, 2021. – Vol. 2. No 3. – Pp. 868–873.
2. *To'rayeva G.H.* Google Classroom platformasida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro, 2020 – 36 b.
3. *Гладышева М.С*. Возможности использования google-forms в обучении русскому языку и культуре речи // Проблемы современного педагогического образования, 2022. – № 76 (3). – Pp. 67–73.
4. *Забродина Е. В., Сильвестрова М.А*. Google Формы как современное средство оценивания результатов обучения на уроках технологии // Молодой ученый, 2021. – №46(388). – С. 266–269.
5. *Заблоцька Ю*. Что такое Google Forms? [Электронный ресурс]. URL: https://apix-drive.com/ru/blog/reviews/chto-takoe-google-forms [Дата обращения: 20.03.2024].
6. *Лавриненко И.Ю*. Опыт использования гугл-форм в образовательном процессе (на материале обучения иностранному языку) // Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования, 2021. – № 4 (33). – Pp. 134–137.
7. *Дутко Н.П.* Использование Google-сервисов в процессе обучения русскому языку // Современное педагогическое образование, 2020. – № 2. – С. 135–139.
8. *Богачева, Д.М., Березина Ю.Б., Животкова Л.Л., Назарова Л.Г., Нечаева Г.И., Романова Н.С., Бахтадзе Л.И*. Google Форма как средство оценки качества знаний учащихся в условиях дистанционного обучения // Образование и воспитание. Международный научно-методический журнал, 2021. – № 3 (34). – С. 21–25.
9. Google Формы: возможности для педагога // [Электронный ресурс]. URL: https://nitforyou.com/google-formy/ [Дата обращения: 09.03.2024]
10. *Гордовский Д*. Полное руководство по работе с Google Формами // [Электронный ресурс]. URL: https://www.calltouch.ru/blog/polnoe-rukovodstvo-po-rabote-s-google-formami/ [Дата обращения: 23.03.2024]

USE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

(in the example of Google Forms)

Mirzohid Sh. Rakhmonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 6(82). 43–53.

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, 170100, str. Do'stlik, 4. (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

Key words: digital education, Google Forms, online testing, transparent monitoring, surveys.

This article describes the advantages, capabilities and how to use, Create, use of digital educational technologies to improve educational efficiency. Digital technologies are aimed at using the Google Forms service, making questionnaires, tests, researching types of tests.

The advantages, capabilities and how to use, Create, use of digital educational technologies to improve educational efficiency are described. From digital technologies, the use of the Google Forms service, questionnaire-surveys, drawing up tests, research of test types determines the research methodology and methods.

As a result of the study, the following can be recognized:

Google Forms is an online tool for creating online surveys and tests;

It becomes clear that Google Forms is a tool that is used by Google to create surveys, tests and forms online;

Google Forms (such as polls, tests, collection of feedback) will add without any restrictions;

to use the service, it is required to have a Google account;

transparent and online verification of students ' knowledge, quick retrieval of results;

Tests and questionnaires created using Google Forms to use in the organization of daagrammic visualization of requests and further educational work;

Links to questionnaire-surveys and interactive tests can be distributed to students on computer and mobile devices through Telegram, Instagramm, vatsapt, Facebook, Twitter and other social networks.

	A	B	C	D	
	Form_Responses1				
1	Отметка времени	Баллы	Талабанинг фамилияси, исми ва гуруҳи	Қайси жавобларда изохлар тўғри келтири	Қайси каторда
2	06.02.2025 15:28:29	21 / 25	Abdumannobova Nurjaxon MI-302-guruh	float-хақиқий типли объект, int-бутун тип объе	x2
3	06.02.2025 15:34:01	21 / 25	Nurmuhammedova Soxibaxon 302	str-сатр тип объект, float-хақиқий типли объек	x2
4	06.02.2025 15:34:34	21 / 25	Tursunova Malika MI 302 guruh	float-хақиқий типли объект, int-бутун тип объе	x2
5	06.02.2025 15:35:44	18 / 25	Inoyatova Gulshoda	int-бутун тип объект, float-хақиқий типли объе	x2

Interactive online test response table

Table-shaped responses can be copied in Excel format. On the basis of the answers, students could not answer which test questions, which questions could be answered, as well as plan further classes through the taxiles. This determines exactly what topics are incomprehensible to students on which the teacher needs to work harder and what kind of digital educational technologies it is necessary to conduct a lesson in a visual and interactive way.

In summary, an online test can be presented to students in various forms: by choosing one of the answer options or by filling out in series. The teacher can manually evaluate the completed test or run an automatic assessment system. Students can also view their results, know the points they have scored, and analyze their mistakes. Due to the possibility of working with the entire group within the framework of one lesson, paper and paint are not spent, and time is also saved for evaluation. Even computers are not required to carry out this process. In order to make the Test process more complex, different question numbers can be set for each option. This way it will be more difficult for students to copy the results. There is an opportunity to immediately conduct a general analysis of the class or consider the result of each student separately. The teacher can also add personal comments to the student's answers.

References:

1. Abdurakhmonov, A.A., Dadabayeva, Kh.A. (2021). Zamonaviy raqamli texnologiyalarning qo'llanilish sohalari va yutuqlari [Areas of application and achievements of modern digital technologies]. *Academic Research in Educational Sciences*. Vol. 2. Issue 3. Pp. 868-873.

2. To'rayeva, G.H. (2020). *Google Classroom platformasida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar* [Methodological recommendations for working on the Google Classroom platform]. Bukhara.

3. Gladysheva, M.S. (2022). Vozmozhnosti ispolzovaniya google-forms v obuchenii russkomu yazyku i kulture rechi [The possibilities of using google forms in teaching Russian language and speech culture]. *Problemy sovremennogo pedagogicheskogo obrazovaniya*. 76 (3). Pp. 67-73.

4. Zabrodina, E. V., Silvestrova, M.A. (2021). Google Formy kak sovremennoe sredstvo ocenivaniya rezultatov obucheniya na urokah tekhnologii [Google Forms as a modern tool for assessing learning outcomes in technology lessons]. *Molodoj uchenyj*. 46(388). Pp. 266-269.

5. Zablocka, Y. (2022). *Chto takoe Google Forms?* [What is Google Forms?]. [Online]. URL: https://apix-drive.com/ru/blog/reviews/chto-takoe-google-forms (Date of Access: 20.03.2024)

6. Lavrinenko, I.Y. (2021). Opyt ispolzovaniya gugl-form v obrazovatelnom processe (na materiale obucheniya inostrannomu yazyku) [The experience of using Google forms in the educational process (based on the material of teaching a foreign language)]. *Vestnik Omskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. Gumanitarnye issledovaniya*. 4 (33). Pp. 134-137.

7. Dutko, N.P. (2020). Ispolzovanie Google-servisov v processe obucheniya russkomu yazyku [Using Google services in the process of learning Russian]. *Sovremennoe pedagogicheskoe obrazovanie*. 2. Pp. 135-139.

8. Bogacheva, D.M., Berezina, Y.B., Zhivotkova, L.L. (et.al.) (2021). Google Forma kak sredstvo ocenki kachestva znanij uchashchihsya v usloviyah distancionnogo obucheniya [Google Form as a means of assessing the quality of students knowledge in a distance learning environment]. *Obrazovanie i vospitanie*. 3 (34). Pp. 21-25.

9. (2018). *Google Formy: vozmozhnosti dlya pedagoga* [Google Forms: Opportunities for the teacher]. [Online]. URL: https://nitforyou.com/google-formy/ (Date of Acces: 09.03.2024)

10. Gordovskij, D. (2022). *Polnoe rukovodstvo po rabote s Google Formami* [The Complete Guide to Working with Google Forms]. [Online]. URL: https://www.calltouch.ru/blog/polnoe-rukovodstvo-po-rabote-s-google-formami. (Date of Acces: 23.03.2024)

Muallif haqida ma'lumot:

RAHMONOV Mirzohid Shavkatovich – Andijon davlat pedagogika instituti Matematika va informatika kafedrasi dotsenti. E-mail: mrahmonov489@gmail.com